

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–martida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 23 704,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 9,3 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 110,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hisyasi 18,4 % ga yetdi.



Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	I. YaHM	19 613,3	23 704,9	109,3
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17 466,4	20 828,0	109,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2 146,9	2 876,9	110,2
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17 466,4	20 828,0	109,1
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	8 086,9	9 489,5	110,7
	sanoat	6 482,0	7 412,1	110,1
	qurilish	1 604,9	2 077,4	113,3

		Mld. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	Xizmatlar	9 379,5	11 338,5	107,7
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 897,3	3 579,3	105,9
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 270,4	2 672,5	109,2
	boshqa xizmat tarmoqlari	4 211,8	5 086,7	108,2

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 8 762,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,1 % ga yuqoridir.



Yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari




(YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 87,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 12,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida sanoat tarmog'i 35,6 % ni, qurilish 10,0 % ni va xizmatlar sohasi 54,4 % ni tashkil qildi.




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiqa nisbatan % da)

		2020-yil	2021-yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	89,1	87,9
	Mahsulotlarga sof soliqlar	10,9	12,1
	II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	100,0	100,0
	Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)	46,3	45,6
	sanoat	37,1	35,6
	qurilish	9,2	10,0
	Xizmatlar	53,7	54,4
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	16,6	17,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	13,0	12,8
	boshqa xizmat tarmoqlari	24,1	24,4




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiqa nisbatan % da)

2020- yil






2021- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda – 110,1 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 35,6 %), qurilishda – 113,3 % (10,0%) va xizmatlar – 107,7 % (54,4 %)ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 105,9 % (17,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,2 % (12,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 108,2 % dan (24,4 %) iborat bo'ldi.



Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YaHM o'sishiga sanoat tarmog'i – 3,3 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,1 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,7 f.p.) va xizmatlar 3,8 f.p (2020- yil yanvar-martida – 5,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 1,1 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,9 f.p.)ga ko'paydi.




2021- yil yanvar-mart oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissi
(jamiqa nisbatan % da)




2021-yil yanvar-martda YaHM deflyatori indeksi 2020-yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 110,6 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 114,2 % va xizmatlarda – 112,2 % qayd etildi.



Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Yanvar-mart oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan % da)



2021-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 46,2 %ni tashkil qildi (2020-yil yanvar-martida – 47,6 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.